

# ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TASVIRIDA OBRAZLARNING TARIXIY VA IJTIMOYIY TALQINI

**Xoshimova Dildora Madaminovna, filologiya  
fanlari doktori, professor, NamMTI, “Chet  
tillar” kafedrasini mudiri**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boburning tasvirlagan obrazlarning tarixiy va ijtimoiy mavqei beshta tasnif asosida ko'rsatib berilgan. Ularning har biriga alohida to'xtanilib, ularning obrazlari tasviriy vositalar bilan ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xarakter tasviri, tarixiy va ijtimoiy mavqei, temuriy hukmdorlar, metafora, epitet, o'xshatish, tasviriy vositalar

**Annotation:** This article shows the historical and social status of Babur's images based on five classifications. Each of them is discussed separately, and their images are revealed by visual means.

**Key words:** Character image, historical and social status, Timurid rulers, metaphor, epithet, simile, visual aids

**Аннотация:** В данной статье показан исторический и социальный статус изображений Бабура на основе пяти классификаций. Каждый из них рассматривается отдельно, а их образы раскрываются визуальными средствами

**Ключевые слова:** Образ персонажа, историко-социальный статус, тимуридские правители, метафора, эпитет, сравнение, изобразительные средства

«Bobur kishilardagi xarakter xususiyatlarini tasvirlashda tashbeh, istiora, majoz va boshqa badiiy san'atlarni ortig'icha ishlatishni ma'qul ko'rmagan: voqealar qisqa, lo'nda, tarixan aniq ifodasini topgan» [1.44]. «Boburnoma» matnini shunday tasviriy vositalarning ishlatilishiga ko'ra kuzatganimizda, muallifning ularni qo'llashda «oltin mo'tadillik» mezoniga amal qilganini ko'ramiz. Biron bir tashbeh, istiora yoki majoz ortiqcha qo'llanilmaydi. Xarakter tasviridagi lo'ndalik, aniqlik va reallikka soya solmaydi. Aksincha, qahramon xarakterining yorqin ifodalanishiga yordam beradi.

Z.M.Bobur tasvirlagan shunday obrazlarning tarixiy va ijtimoiy mavqei quyidagi tasnif asosida o'rganishga harakat qilamiz.

**1) Hukmdorlar obrazi.** Ulug‘bek mirzo, Umarshayx mirzo, Abdulaziz mirzo, Badiuzzamon mirzo, Boysunqur mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Mahmud, Sulton Ahmad, Shayboniyxon va boshqalar;

**2) Amirlar obrazi:** Darvesh Alibek, Muhammad Burunduq barlos, Jahongir barlos, Nuyonbek, Zunnun arg‘un va boshqalar;

**3) Vazirlar obrazi:** Majdiddin Muhammad, shayxulislom Sayfuddin Ahmad, Mavlono Shayx Husayn, Mullozodayi Mullo Usmon, Mir Murtoz, Mullo Mas‘ud Shirvoniy va boshqalar;

**4) Din peshvolari obrazi:** Xoja Ubaydulloh Ahror, Mir Sarbaraxna, Kamoliddin Husayn Gozurgohiy va boshqalar;

**5) Harbiy amaldorlar obrazi:** Dilovarxon, Qosimbek va boshqalar.

«Boburnoma»da Boysunqur mirzo xarakteri tasviriy vositalar yordamida quyidagicha tasvirlanadi: «adolatpesha va odmi va xushta'b va fazilatliq podshohzoda edi». Avvalo bu jumlada Bobur Boysunqur mirzoning adolatli podshoh ekanligini qayd etadi. «Odmi» deganda esa uning barcha temuriy hukmdorlar singari oddiylikni xush ko‘rishiga urg‘u beradi. «Xushta'b» so‘zida Boysunqur mirzoning yuksak did va farosatga ega, muomala madaniyati yuqori, san‘atni sevishini ifodalaydi. «Fazilatlik» sifatlashi esa uning oddiy bir inson va podshoh sifatida atrofidagi kishilar va raiyatga foyda – yaxshiliklar keltirishidan, olib borgan ishlari xayrli ekanidan dalolat beradi. Shuningdek, Bobur uning xushchaqchaq va fazilatli shaxs bo‘lganligini ham yoritib beradi. Keyingi jumla esa Boysunqur mirzo xarakterini yanada mukammal tasavvur qilishimizga yordam beradi: «xeyli chog‘irg‘a hirs bor edi. Chog‘ir ichmas mahalda namoz o‘tar edi. Saxovati va baxshishi e‘tidol bila edi». Bunda muallif metafora, epitet, o‘xshatish kabi tasviriy vositalardan foydalanadi. Bularning hammasi biz yuqorida ta’kidlagan Aristotel «Poetika»si asosida belgilagan badiiy xarakterga oid to‘rt jihatni o‘zida mujassam etadi. Chog‘ir ichishi haqidagi ma’lumotni istisno etganda, Boysunqur mirzoning yaxshi maqsadli, shoh va er kishiga to‘la monand, haqqoniy bir xarakter ekanini ko‘ramiz.

Rus adabiyotshunosi N.Dragomiretskayaning ta’kidlashicha, xarakter yaratishda yozuvchi turli usullardan foydalanishi mumkin: a) bir toifa yozuvchilar badiiy

xarakter xususiyatlarini personaj nutqi orqali aks ettiradilar; b) boshqa yozuvchilarda badiiy obrazning ma'lum bir predmetga munosabati xarakter yaratish usuli yetakchilik qiladi; v) uchinchi bir toifa yozuvchilar badiiy obrazlarni tabiat qo'ynida tasvirlash orqali xarakter yaratishga omil bo'ladilar[2.132-133]. Bobur obrazlar xarakterini chog'ishtirish, o'xshatish va mubolag'alar asosida keng ochib beradi. Masalan, «Boburnoma»da Boysunqur mirzoning xattotlik, naqqoshlik va badiiy mahorati quyidagicha tasvir etiladi: «nasta'liq xatini xeyli xo'b bitir edi. Naqqoshlikda ham iligi yomon emas edi. She'rni ham tavre aytur edi. «Odiliy» taxallus qilur edi. She'riy devon tartib qilg'uncha bo'lmaydur edi» (Boburnoma 2002; 71).

Bobur Boysunqur mirzoning she'riy mahoratini ta'kidlar ekan, Samarqandda g'azallari juda urf bo'lganligini va mirzoning she'rlari yetib bormagan xonadon qolmaganini dalil sifatida keltiradi. Bu jihat Bobur xarakterlaridagi haqqoniylikka yana bir misol bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qudratullayev H. «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy»da mualliflarning portret yaratishdagi mushtarakligi va o'ziga xosligi. Muhammad Haydar Mirzoning Tarixi Rashidiy asarining jahon madaniyati tarixidagi o'rni (Xalqaro ilmiy anjuman materiallari). – Toshkent, 2011. – B.44.
2. Dragomiretskaya N. Xarakter v hudojestvennoy literature // Problemy teoriiya literatury. – Moskva: Nauka, 1958. – S.132-133.
3. Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF “BABURNAME”. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1067-1069.
4. Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN "BABURNAME". *The Scientific Heritage*, (49-3), 50-51.
5. Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». *Sciences of Europe*, (45-5 (45)), 46-48.